

Shukurova Sevara Normuminova,
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi
e-mail: sevara4800@gmail.com



Salohiddinova Mahliyo Salohiddin qizi,
Guliston davlat universiteti talabasi
e-mail: mahliyosalohiddinova222@gmail.com



JAMIYAT TARAQQIYOTIGA ZO'RAVONLIKNING TA'SIRI VA OQIBATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarga nisbatan zo'rvonlikning turlari, uning oqibatlari va unga qarshi kurashish yo'llari keng yoritilgan. Maqolada Jahon sog'likni saqlash tashkiloti va UNICEF kabi xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlariga asoslangan holda, dunyo va O'zbekiston misolida bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatlari tahlil qilingan. Shuningdek, Shvetsiya, Norvegiya, AQSh va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarning bu boradagi ilg'or tajribalari o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar va milliy strategiyalar asosida amalga oshirilayotgan ijobiy islohotlar ko'rib chiqilgan.

Аннотация. В данной статье всесторонне освещаются виды насилия в отношении детей, его последствия и пути борьбы с этим негативным явлением. В статье на основе статистических данных таких международных организаций, как Всемирная организация здравоохранения и ЮНИСЕФ, проанализированы случаи насилия над детьми в мире и на примере Республики Узбекистан. Кроме того, изучен передовой опыт развитых стран, таких как Швеция, Норвегия, США и Япония, в данной сфере. Также рассмотрены позитивные реформы, реализуемые в Республике Узбекистан в последние годы на основе принятых законов и национальных стратегий.

Annotation. This article comprehensively examines the types of violence against children, its consequences, and ways to combat this social problem. Based on statistical data from international

organizations such as the World Health Organization and UNICEF, the article analyzes cases of child violence worldwide and in the context of Uzbekistan. In addition, the advanced practices of developed countries such as Sweden, Norway, the United States, and Japan in this field are explored. The article also reviews the positive reforms implemented in recent years in the Republic of Uzbekistan based on adopted laws and national strategies.

Tayanch soʻzlar: *zoʻravonlik, ekspluatatsiya, rehabilitatsiya, oilaviy muhit, profilaktika, monitoring, huquqiy himoya mexanizmlari, konvensiya.*

Ключевые слова: *Насилие, эксплуатация, реабилитация, семейная среда, профилактика, мониторинг, механизмы правовой защиты, конвенция.*

Keywords: *Violence, exploitation, rehabilitation, family environment, prevention, monitoring, legal protection mechanisms, convention.*

Kirish. Bola – jamiyatning eng muqaddas, eng pok va eng himoyasiz aʼzosi. Har bir bola mehrga, eʼtiborga, qoʻllab-quvvatlashga muhtoj. Ammo bugungi real hayotda koʻplab bolalar eʼtibor oʻrniga tahqir, mehr oʻrniga zoʻravonlik, himoya oʻrniga befarqlikni boshdan kechirmoqda. Bolalarga nisbatan zoʻravonlik insoniyat oldidagi eng dolzarb, jiddiy va xavfli muammolardan biridir. Bu maqolada bolalarga nisbatan zoʻravonlikning turlari, uning oqibatlari, unga qarshi kurashishda Oʻzbekiston va xorijiy davlatlar tajribasi hamda mavjud statistikalar tahlil qilinadi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida bolalarga nisbatan zoʻravonlik shakllari yanada koʻpaymoqda. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) va UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar, bolalarga nisbatan zoʻravonlikning eng keng tarqalgan shakllari: jismoniy zoʻravonlik, ruhiy zoʻravonlik, jinsiy zoʻravonlik va eʼtiborsizlik haqida oʻz hisobotlarini taqdim etmoqda¹. Ushbu holatlar, bolaning kelajakdagi ruhiy holati va jamiyatdagi muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun xavf tugʻdiradi. Oʻzbekistonda ham bu muammo tobora jiddiylashib bormoqda. Statistikalariga koʻra, oʻtmishda bolalarga nisbatan zoʻravonlik holatlari oz darajada kuzatilgan boʻlsa-da, hozirgi kunda bu holatlar koʻpaygan². Buning sababi sifatida oilaviy muhit, bolalarga gʻamxoʻrlikning yetishmasligi, qonunlarning yetarlicha kuchga ega boʻlmasligi va ijtimoiy xizmatlarning kamchiligi koʻrsatilmoqda.

¹ World Health Organization. Violence against children. Geneva: WHO, 2020; UNICEF. The State of the World's Children. – New York, 2021.

² <https://ombudsman.uz/ru>

Maqsad va uni asoslash. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni kamaytirish va unga qarshi samarali kurashish uchun xalqaro va milliy miqyosda muhim yondashuvlar mavjud. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, WHO va UNICEF bolalar huquqlarini himoya qilishga katta e‘tibor qaratmoqda. Shvetsiya, Norvegiya, AQSh kabi rivojlangan mamlakatlar o‘zlarining ilg‘or tajribalari orqali mazkur zo‘ravonlikni kamaytirishda muvaffaqiyatli islohotlarni amalga oshirdilar. O‘zbekistonning yangi qonunlari va strategiyalari ham bu yo‘lda ijobiy natijalar keltirmoqda. Jahon sog‘likni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan taqdim etilgan hisobotda dunyo bo‘yicha bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning turli shakllari, statistikalari va salbiy ta‘sirlari tahlil qilinadi³. Hisobotda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning jismoniy, ruhiy, jinsiy va e‘tiborsizlik shakllarini chuqurroq ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, tashkilot bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini ham ta‘kidlaydi. Ushbu manba zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro me‘yorlar va amaliy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. UNICEFning har yili chop etiladigan “Dunyo bolalarining holati” hisobotida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning global holati va unga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan dasturlar haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan⁴. Bundan tashqari, maqolada yuridik fanlar doktori Mo‘minov Abdulxay Rashidovich va Tillabayev Mirzatillo Alisherovichlarning “Bola huquqlari” darsligidan foydalanilgan⁵. Umuman olganda, bolalar zo‘ravonligi bo‘yicha milliy qonunchilik bilan bir qatorda xorijiy tajribalar ham ko‘rib chiqilgan.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Zo‘ravonlik deganda bolaning jismoniy, ruhiy yoki jinsiy daxlsizligiga zarar yetkazish, unga tahdid solish yoki uni kamsitish, ekspluatatsiya qilish tushuniladi. Jahon sog‘likni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan zo‘ravonlik quyidagi to‘rt asosiy turga bo‘linadi⁶:

1. *Jismoniy zo‘ravonlik* – urish, kaltaklash, tan jarohati yetkazish.
2. *Ruhiy (psixologik) zo‘ravonlik* – haqorat qilish, kamsitish, qo‘rqitish, e‘tiborsizlik.
3. *Jinsiy zo‘ravonlik* – bola roziligisiz unga nisbatan jinsiy harakatlar qilish yoki unga bunday harakatlarni ko‘rsatish.
4. *E‘tiborsizlik (neglect)* – bolaga g‘amxo‘rlik qilmaslik, oziq-ovqat, ta‘lim, salomatlikdan mahrum etish.

Maqolada yuridik fanlar doktori Mo‘minov Abdulxay Rashidovich va Tillabayev Mirzatillo Alisherovichlarning “Bola huquqlari” darsligidan foydalanilgan. Umuman olganda, bolalar zo‘ravonligi bo‘yicha milliy qonunchilik bilan bir qatorda xorijiy tajribalar ham ko‘rib chiqilgan.

³ World Health Organization. Global status report on violence against children. – Geneva, 2020.

⁴ UNICEF. The State of the World’s Children. – New York, 2021.

⁵ Mo‘minov A., Tillabayev M. Bola huquqlari. Elektron darslik. – Toshkent: JIDU, 2011.

⁶ World Health Organization. World report on violence and health. – Geneva, 2002.

***Ilk bora Shvetsiya
hukumati
1979-yilda
bolalarga jismoniy
jazoni taqiqlagan.
Itimoiy xodimlar
bu masalani qattiq
nazorat qiladi.
Norvegiyadagi
“Barnevernet”
agentligi
bolalarning
holatini mustaqil
nazorat qiladi.
Ularning ijtimoiy
holati, oilaviy
ahvoli, yashash
sharoitlari to‘liq
nazorat qilinadi.***

Bularning har biri bolaning ruhiyatida salbiy iz qoldiradi, uning kelajagiga, jamiyatdagi o‘rniga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bolalar eng murg‘ak va himoyaga muhtoj bo‘lishiga qaramay, bugungi kunda ularga nisbatan zo‘ravonlik holatlari ortmoqda. Dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida ham vaziyat jiddiy tus olgan. Quydagi statistikalar bu muammoning chuqurligini ko‘rsatadi: JSSTning 2020-yilgi hisobotiga ko‘ra, har yili dunyo bo‘ylab 1 milliarddan ortiq bola jismoniy, ruhiy yoki jinsiy zo‘ravonlikka duchor bo‘ladi⁷.

UNICEF ma’lumotiga ko‘ra, dunyodagi har 2 boladan biri 1 yoshgacha bo‘lgan paytda ota-onasi yoki qarindoshlari tomonidan urib, jazolangan⁸. AQShda har yili taxminan 4,3 million bola zo‘ravonlik yoki e’tiborsizlik qurboni sifatida ro‘yxatga olinadi⁹. Hindistonda bolalarning 53 foizi hayoti davomida hech bo‘lmaganda bir marta jinsiy zo‘ravonlikka duch kelganini bildirgan¹⁰. O‘zbekistonda ham bu muammo dolzarb. Respublika Bosh prokuraturasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda 3000dan ortiq voyaga yetmaganlarga nisbatan jinoyat ishlari ochilgan¹¹.

Xo‘sh, zo‘ravonlik holatining oldini olish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Ilk bora Shvetsiya hukumati 1979-yilda bolalarga jismoniy jazoni taqiqlagan¹². Itimoiy xodimlar bu masalani qattiq nazorat qiladi. Norvegiyadagi “Barnevernet” agentligi bolalarning holatini mustaqil nazorat qiladi. Ularning ijtimoiy holati, oilaviy ahvoli, yashash sharoitlari to‘liq nazorat qilinadi. Yaponiyada esa maktablarda bolalar o‘z huquqlarini o‘rganadi, huquqiy savodxonlik kuchli. Bundan tashqari, ular mustaqil mehnatga va hurmatga ham o‘rgatiladi. AQShda esa zo‘ravonlik holati bilan maxsus agentlik shug‘ullanadi. “Child Protective Services” (CPS) har bir zo‘ravonlik holatini nazorat qilib, bolani oiladan olib chiqib ketish vakolatiga ega¹³.

O‘zbekistonda ham bolalarni himoya qilish borasida quyidagi muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

⁷ World Health Organization. Global estimates of violence against children. – Geneva, 2020.

⁸ UNICEF. Hidden in Plain Sight: A statistical analysis of violence against children. – New York, 2014.

⁹ <https://www.hhs.gov/index.html>

¹⁰ <https://timesofindia.indiatimes.com>

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi. Voyaga yetmaganlarga oid jinoyatlar statistikasi, 2022.

¹² Durrant J. Physical punishment, culture, and rights. – Stockholm, 1999.

¹³ Child Welfare Information Gateway. Child abuse prevention. – Washington DC, 2021.

Mamlaktimizda bola huquqlarini himoyalashga oid dastlabki qadam 1992-yil dekabr oyida qo'yilgan edi. Shu yili O'zbekiston ilk bora Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyani qabul qildi¹⁴. Ayollar va bolalar huquqlari har tomonlama mustahkamlandi. "Mehr daftari" va boshqa ijtimoiy loyihalar orqali zaif qatlamdagi bolalarga yordam ko'rsatilmoqda. Psixologik yordam markazlari va 1097 ishonch telefoni faoliyati kengaymoqda. Bularning barchasi bolalarning huquqlari va manfaatlarini qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshirilmoqda.

Zo'ravonlik faqat jinoyat emas, balki ma'naviy halokatdir. Jamiyatda bu illatni yo'qotish uchun har bir fuqaro o'z mas'uliyatini his qilishi lozim. Quyidagi takliflar muammoning yechimiga xizmat qilishi mumkin:

1. Har bir maktab va mahallada bolalar xavfsizligini nazorat qiluvchi ijtimoiy xodimlar lavozimlari joriy etilishi zarur.

2. Ota-onalar va pedagoglar uchun majburiy psixologik treninglar o'tkazilishi kerak.

3. Bolalar huquqlari bo'yicha teleko'rsatuvlar, ijtimoiy roliklar va o'quv materiallari ishlab chiqilishi lozim.

4. Jazo choralari bilan bir qatorda, tarbiyaviy, tushuntirish ishlari ham kuchaytirilishi lozim.

5. Eng asosiysi, zo'ravonlik sodir etgan shaxsga qonuniy chorani kuchaytirish lozim.

Yakuniy qism. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik jamiyat taraqqiyotiga jiddiy to'sqinlik qiluvchi, uzoq muddatli salbiy oqibatlariga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy muammodir. Zo'ravonlikning jismoniy, ruhiy, jinsiy va e'tiborsizlik kabi barcha shakllari bolaning psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, aniq qonunchilik, samarali ijtimoiy xizmatlar va tizimli profilaktika choralarining mavjudligi bolalarga nisbatan zo'ravonlikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi¹⁵. Shvetsiya, Norvegiya va AQSh kabi mamlakatlar tajribasi buni tasdiqlaydi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda qabul qilinayotgan qonunlar bolalar huquqlarini himoya qilish tizimini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xulosa qilib aytganda, zo'ravonliksiz muhitni shakllantirish davlat, jamiyat va har bir oilaning umumiy mas'uliyati bo'lib, kelajak avlodning sog'lom rivoji uchun muhim shart hisoblanadi.

Bolalarga nisbatan zo'ravonlik jamiyat taraqqiyotiga jiddiy to'sqinlik qiluvchi, uzoq muddatli salbiy oqibatlariga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy muammodir. Zo'ravonlikning jismoniy, ruhiy, jinsiy va e'tiborsizlik kabi barcha shakllari bolaning psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

¹⁴ United Nations. Convention on the Rights of the Child. – New York, 1989 (Uzbekistan ratified in 1992).

¹⁵ Herrenkohl T. et al. Intersection of family violence and child abuse. Trauma, Violence & Abuse, 2020.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi. *Voyaga yetmaganlarga oid jinoyatlar statistikasi*, 2022.
3. World Health Organization. *Violence against children*. Geneva: WHO, 2020; UNICEF. *The State of the World's Children*. – New York, 2021.
4. World Health Organization. *Global status report on violence against children*. – Geneva, 2020.
5. UNICEF. *The State of the World's Children*. – New York, 2021.
6. Mo'minov A., Tillabayev M. *Bola huquqlari*. Elektron darslik. – Toshkent: JIDU, 2011.
7. World Health Organization. *World report on violence and health*. – Geneva, 2002.
8. World Health Organization. *Global estimates of violence against children*. – Geneva, 2020.
9. UNICEF. *Hidden in Plain Sight: A statistical analysis of violence against children*. – New York, 2014.
10. Durrant J. *Physical punishment, culture, and rights*. – Stockholm, 1999.
11. *Child Welfare Information Gateway. Child abuse prevention*. – Washington DC, 2021.
12. United Nations. *Convention on the Rights of the Child*. – New York, 1989 (Uzbekistan ratified in 1992).
13. Herrenkohl T. et al. *Intersection of family violence and child abuse. Trauma, Violence & Abuse*, 2020.
14. Tuychiyevna T. G., Hulkar, N. *Demografik qarish sharoitida yolg'iz keksalarning ijtimoiy himoyasi. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari*, 14(02), 2025. – B. 126-130.
15. Shukurova S. N. *O'zbekistonda OIV infeksiyasi profilaktikasining tibbiy va ijtimoiy ahamiyati. Academic research in educational sciences*, (3), 2024. – B. 765-768.
16. Normo'minova S. S. *Oila ichra ko'rinmas tahdid: nazariy yondashuvlar prizmasida. Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari*, 14(02), 2025. – B. 41-45.
17. Sevara S., Dilshod, B. *Qariyalarning sog'lom qarishini ta'minlashda turizm imkoniyatlari: xorijiy tajribalar asosida. Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 5(6), 2025. – B. 1854-1859.
18. Shukurova S., Suvonqulova, G. *Gender tenglik barcha ayollar huquq va imkoniyatlarining kafolati sifatida. Наука и инновация*, 3(23), 2025. – B. 7-10.
19. Tuychiyevna T. G. *Yangi davrning imkoniyatlari va xavflari: sun'iy intellekt. Zamonaviy ta'limda fan va innovatsion tadqiqotlar*, 3(8), 2025. – B. 190-196.
20. Shukurova Sevara Normo'minova. *2030 YIL - OIV EPIDEMIYASIZ HAYOT SARI. TADQIQOTLAR. UZ*, 37(1), 2024. – B. 110-114 // <https://tadqiqotlar.uz/new/article/view/2795>